

**TERI LEYSHMANIOZI TARQALISHIDA TABIIY-IQLIM VA
EKOLOGIK OMILLARNING ROLI.****Mirzoyeva Mehriniso Rizoyevna***Epidemiologiya, dermatovenerologiya va bolalar
dermatovenerologiyasi kafedrasini mudiri, professor
ORCID ID 0000-0003-1014-9071***Hamidova Nargiza Qosimovna***Epidemiologiya, dermatovenerologiya va bolalar
dermatovenerologiyasi kafedrasini v.b. dotsenti, PhD
ORCID ID 0000-0002-9652-7426***Po'lotov Muhsin Muxtor og'li***Epidemiologiya, dermatovenerologiya va bolalar
dermatovenerologiyasi kafedrasini 1-kurs magistranti
ORCID ID 0009-0002-1446-3017**Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti*

Kirish. Teri leyshmaniozi (TL) — Leishmania parazitlari qo'zg'atadigan, Phlebotomus chivinlari orqali yuqadigan transmissiv kasallik bo'lib, hozirgi kunda 98 dan ortiq mamlakatda endemik sifatida qayd etilgan [1, 2]. So'nggi yillarda kasallik holatlari sonining ortib borishi iqlim o'zgarishi, urbanizatsiya va ekologik transformatsiya bilan bog'liq bo'lib, bu omillarning TL epidemiologiyasiga ta'sirini tizimli o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [3, 4].

Asosiy qism. Jahon va O'zbekiston olimlari tomonidan o'tkazilgan tahlillar TL tarqalishini belgilovchi bir qator tabiiy-iqlim va ekologik omillarni ko'rsatib berdi. 2005–2022 yillar davomida 52 mamlakatni qamrab olgan ekologik tadqiqotda teri va shilliq qavat leyshmaniozi holatlari bilan harorat, yog'ingarchilik, namlik va o'simlik qoplami o'rtasidagi statistik bog'liqlik sun'iy yo'ldosh vositalari yordamida o'rganilgan [3]. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi natijasida Phlebotomus chivinlarining yashash areali shimoliy va baland tog'li hududlarga qarab kengayib borgan, bu esa ilgari endemik bo'lmagan mintaqalarda yangi kasallik o'choqlarining paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Shimoliy-g'arbiy Pokistonda 2022–2023 yillarda o'tkazilgan tadqiqot ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Harorat 20–30°C va nisbiy namlik 40–60% bo'lganda chivinlarning ko'payish faolligi va kasallik holatlari soni ko'rsatkichlari o'rtasida kuchli korrelyatsiya aniqlangan [5]. Yog'ingarchilik darajasining oshishi ham chivinlar ko'payishi uchun qulay muhit yaratib, keyingi 2–4 haftada kasallik holatlari sonining ortishiga sabab bo'lgani kuzatilgan.

Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Eron, Xitoy va Mo'g'uliston bo'yicha tarixiy va zamonaviy ma'lumotlarni analiz qilgan maqolada ko'rsatilishicha, Markaziy Osiyoda bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan Leishmania major, L. turanica va L. gerbilli turlari bir xil rezervuar va tashuvchilarga ega [4]. Kemiruvchilardan katta qum sichqonlar (*Rhombomys opimus*) va boshqalar bu hududda TL tarqalishida asosiy rezervuarlar bo'lib, ularning ekologik areali bevosita iqlim o'zgarishiga bog'liq. Bundan tashqari, moliyaviy-iqtisodiy omillar va qishloq xo'jaligi amaliyotlari ham kasallik tarqatuvchi chivinlar tarqalish dinamikasiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda 2002–2017 yillar davomida kuzatilgan retrospektiv epidemiologik tahlil shuni ko'rsatadiki, kasallik holatlari soni o'zgaruvchan bo'lsa-da, umumiy tendentsiya o'sish yo'nalishida bo'lgan. Kasallikning asosiy manbai katta qum sichqonlari (*Rhombomys opimus*) bo'lib, chivinlar aholi punktlari, ochiq maydonlar, kemiruvchilar inlari va g'or yoriqlarida uchraydi. Mavsumiy dinamika bo'yicha epidemik mavsum may-iyun oylarida boshlanib, eng ko'p kasallanish avgust-sentabr oylarida qayd etilgan [2,6].

Surxondaryo viloyatida 2024 yilda Usarov va Gofur X. [1] tomonidan o'tkazilgan entomologik tadqiqot O'zbekistondagi vaziyatning yanada keskinlashganini ko'rsatdi. 50 yil oldingi ma'lumotlar bilan taqqoslaganda, asosiy vektor *P. papatasi* hamon ustunligini saqlagan bo'lsa-da, antropoz TL vektori *P. sergenti* ulushi 5,4% dan 41,4% gacha keskin oshgan. Bundan tashqari, ilgari hududda qayd etilmagan *P. longiductus* (visseral leyshmanioz tashuvchisi sifatida shubhalilanuvchi tur) birinchi marta ro'yxatga olingan. Tadqiqotchilar bu o'zgarishlarni bevosita iqlim isishi va yashash muhitining ekologik transformatsiyasi bilan bog'lashadi.

Tarnas, Maia C ma'lumotlarga ko'ra, faqat iqlim omillari emas, balki qator ijtimoiy-ekologik sharoitlar ham TL tarqalishida muhim rol o'ynaydi. Urbanizatsiya chivinlarning shahar atroflarida yangi yashash muhitiga moslashuvini, o'rmonlarning qisqarishi esa rezervuar hayvonlar va chivinlarning inson turar joylariga yaqinlashuvini, qashshoqlik va yomon turar joy sharoitlari aholining himoyasizligini oshiradi. Shu bilan birga migratsiya va ko'chish kasallikning yangi hududlarga tarqalishiga imkon beradi [3]. Pokistondagi tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Afg'oniston chegarasiga yaqin va ko'p sonli qochqinlar lagerlariga ega hududlarda kasallik holatlari soni keskin yuqori bo'lgan. Bu esa faqat iqlim modellarini emas, balki ijtimoiy-ekologik yondashuvlarni ham TL nazorat tizimiga kiritish zarurligini ko'rsatadi [5].

Xulosa. Tadqiqotlardan olingan natijalardan kelib chiqib shuni aytish qilish mumkinki, teri leyshmaniozining tarqalishi ko'p omilli jarayon bo'lib, unda harorat, namlik, yog'ingarchilik, o'simlik qoplami kabi tabiiy-iqlim omillari bilan birga urbanizatsiya, o'rmonlarning qisqarishi, migratsiya va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ham

hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda iqlim isishi fonida Phlebotomus chivinlari faunasidagi sifat o'zgarishlari ayniqsa P. sergenti ulushining keskin oshishi va yangi chivin turlarining paydo bo'lishi — TL epidemiologik nazoratini yanada kuchaytirish zaruratini belgilaydi. Kelajakdagi tadqiqotlarda GIS-texnologiyalar va iqlim modellari integratsiyasiga asoslangan maxsus monitoring tizimini joriy etish, shuningdek, iqlim prognozlari asosida O'zbekiston uchun TL tarqalishini bashorat qilish va epidemiologic nazoratni kuchaytirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usarov, Gofur X et al. “Phlebotomine sand fly (Diptera: Phlebotominae) diversity in the foci of cutaneous leishmaniasis in the Surxondaryo Region of Uzbekistan: 50 years on.” *Parasitology research* vol. 123,3 170. 25 Mar. 2024, doi:10.1007/s00436-024-08191-4
2. Мустанов, А. Н., Расулов, Ш. М., & Боймирзаев, А. Э. (2020). Эпидемиологический анализ заболеваемости кожным лейшманиозом в Республике Узбекистан. *Молодой ученый*, (30), 89-92.
3. Tarnas, Maia C et al. “Ecological study measuring the association between conflict, environmental factors, and annual global cutaneous and mucocutaneous leishmaniasis incidence (2005-2022).” *PLoS neglected tropical diseases* vol. 18,9 e0012549. 26 Sep. 2024, doi:10.1371/journal.pntd.0012549
4. Yurchenko V, Chistyakov DS, Akhmadishina LV, Lukashev AN, Sádlová J, Strelkova MV. Revisiting epidemiology of leishmaniasis in central Asia: lessons learnt. *Parasitology*. 2023;150(2):129-136. doi:10.1017/S0031182022001640
5. Uddin S, Khan I, Rehman AU, Rahman HU, Hizbullah. Epidemiological patterns of cutaneous leishmaniasis in north-west Pakistan (2022-2023). *BMC Public Health*. 2025 Oct 14;25(1):3480. doi: 10.1186/s12889-025-23175-4. PMID: 41088089; PMCID: PMC12522337.
6. Baxrom Eshnazarovich Tuxtarov, and Lenara Xudoyberdi Qizi Elmurodova. "O'ZBEKISTONDA TERI LEYSHMANIOZINING TARQALISHI VA UNING OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI" *Scientific progress*, vol. 4, no. 2, 2023, pp. 42-48.